

## MILLIY MENTALITET VA MAHALLA INSTITUTINING YOSHLAR IJTIMOYILASHUVIDAGI O'ZIGA XOS O'RNI

Urumbaeva Aygul Nagmetovna,

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

**Annotatsiya.** Maqolada milliy mentalitet va mahalla institutining yoshlar ijtimoiylashuvidagi o'ziga xos o'rni mavzusi ochib beriladi. Jumladan, yoshlar tarbiyasi, ularning ijtimoiy himoyasi va jamiyatga moslashuvi masalasi butun jamiyatning, har bir mahalla va ta'lim muassasasining eng asosiy vazifasi ekanligi ta'kidlanadi. Milliy mentalitetning yoshlar ijtimoiylashuvidagi o'rni hududiy-etnomadaniy omillar misolida tahlil qilinadi. O'zbek milliy mentalitetining eng muhim va tayanch xususiyatlaridan biri — jamoaviylik tuyg'usi fenomeni, ya'ni shaxsning o'zini avvalo oila, mahalla va el-yurtning bir bo'lagi deb his qilishi — yoshlarda mustahkam ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda va ularni jamiyatga integratsiya qilishda asosiy pedagogik mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Milliy mentalitetning o'zagini tashkil etuvchi etnomadaniyat fenomeniga zamonaviy ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlarda yoshlar ijtimoiylashuvining bazaviy poydevori sifatida qaraladi. Makolada yoshlarning ijtimoiylashuvi bo'yicha qator tavsiyalar va takliflar beriladi.

**Tayanch so'zlar:** milliy mentalitet, mahalla instituti, yoshlar ijtimoiylashuvi, o'ziga xos o'rni, yoshlar tarbiyasi, hududiy-etnomadaniy omillar, jamoaviylik tuyg'usi, etnomadaniyat, ta'lim muassasasi.

**Аннотация.** В статье раскрывается специфика влияния национального менталитета и института махалли на процесс социализации молодежи. Подчеркивается, что вопросы воспитания, социальной защиты и адаптации молодого поколения являются приоритетной задачей всего общества, каждого образовательного учреждения и органов самоуправления граждан. Роль национального менталитета анализируется через призму территориально-этнокультурных факторов. Одной из фундаментальных особенностей узбекского менталитета выступает феномен общинности — осознание личностью себя как неотъемлемой части семьи, махалли и народа. Данный фактор служит ключевым педагогическим механизмом формирования социальной ответственности и успешной интеграции молодёжи в общество. Этнокультура, составляющая ядро менталитета, рассматривается в современных социально-педагогических исследованиях как базовый фундамент социализации. В работе также представлен ряд научно-практических предложений и рекомендаций.

**Ключевые слова:** национальный менталитет, институт махалли, социализация молодёжи, уникальная роль, воспитание молодежи, территориально-этнокультурные факторы, чувство коллективизма, этнокультура, образовательное учреждение.

**Abstract.** The article explores the unique role of national mentality and the mahalla institute in the process of youth socialization. It emphasizes that the education, social protection, and adaptation of the younger generation are paramount tasks for the entire society, including educational institutions and local communities. The influence of national mentality is analyzed through the lens of regional and ethnocultural factors. One of the core features of the Uzbek national mentality is the phenomenon of collectivism—the individual's sense of belonging to the family, the mahalla, and the nation. This factor serves as a primary pedagogical mechanism for fostering social responsibility and facilitating the successful integration of youth into society. In modern socio-pedagogical research, ethnoculture, which forms the core of national mentality, is viewed as the foundational basis for socialization. The article provides a series of practical recommendations and proposals for improving the socialization process.

**Keywords:** national mentality, the mahalla institute, youth socialization, specific role, youth education, regional-ethnocultural factors, sense of collectivism, ethnoculture, educational institution.

**Kirish.** Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning negizida aynan inson qadri, uning huquq va erkinliklari, shuningdek, har tomonlama

barkamol shaxsni voyaga etkazish g'oyasi yotadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (2023), «Ta'lim to'g'risida»gi (2020) hamda «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi (2016) Qonunlarda, qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmonlari va «O'zbekiston – 2030» strategiyasida yoshlarning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun zarur bo'lgan barcha huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishi sifatida mustahkamlangan. Davlat rahbari ta'kidlaganidek, yoshlar tarbiyasi, ularning ijtimoiy himoyasi va jamiyatga moslashuvi masalasi butun jamiyatning, har bir mahalla va ta'lim muassasasining eng asosiy vazifasidir.

**Adabiyotlar tahlili.** Milliy mentalitet va uning yoshlar madaniyatiga ta'sirini tadqiq etgan olimlar (J.A.Mamanov, J.M.Roziqov) mazkur fenomenning o'ta barqarorligiga va tarixiy transformatsiyalarga (o'zgarishlarga) sekin moslashishiga alohida e'tibor qaratadilar. Olimlarning yondashuviga ko'ra, jamiyatlar o'z taraqqiyot tabiatiga ko'ra ikkiga — uzluksiz dinamik o'zgaruvchi (G'arb) va davriy-barqaror shaklga ega bo'lgan (Sharq) jamiyatlariga bo'linadi.

O'zbek xalqiga xos bo'lgan Sharqona mentalitet aynan ikkinchi guruhga mansub bo'lib, unda ijtimoiy qadriyatlar va qarashlar asrlar davomida sayqallanib, chuqur ildiz otadi. Bunday barqarorlik yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida muhim himoya (bufer) vazifasini o'taydi: tashqi global ta'sirlar qanchalik shiddatli bo'lmasin, yosh avlod ongida milliy mentalitet o'z kuchini yo'qotmaydi hamda ularning xulq-atvorini yo'naltiruvchi va yot g'oyalardan asrovchi asosiy mezon bo'lib qolaveradi [5].

Milliy mentalitetning yoshlar ijtimoiylashuvidagi o'rnini hududiy-etnomadaniy omillar misolida tahlil qilar ekanmiz, qoraqalpoq xalqining o'ziga xos tarixiy va psixologik qiyofasiga alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Atoqli olim, akademik **J. Bazarbaev** ta'kidlaganidek, bu xalqning xarakteri, bukilmas irodasi va milliy ongi asrlar davomida murakkab tabiiy muhit (sahro va voha uyg'unligi) ta'sirida toblangan bo'lib, ushbu sifatlar avloddan-avlodga tabiiy ravishda o'tib kelmoqda.

Mazkur noyob mental xususiyatlarni o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga singdirishda va ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvida badiiy adabiyot, xususan, O'zbekiston Qahramoni, Qoraqalpog'iston xalq shoiri **Ibroxim Yusupov** ijodi ulkan pedagogik vosita (translyator) bo'lib xizmat qiladi. Mutafakkir asarlari orqali yoshlar o'z xalqining murakkab tarixini, milliy g'ururini va matonatini chuqur anglaydi. Bu esa globalashuv davrida yoshlarni turli yot g'oyalardan asrovchi va ularda mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi asosiy ma'naviy qalqon vazifasini o'taydi [3].

Jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasi va demokratik tamoyillarning muvaffaqiyatli qaror topishi ko'p o'lchamli omillarga, jumladan, davlatning iqtisodiy, tarixiy va madaniy-ruhiy merosiga bevosita bog'liqdir. Ushbu jarayonda xalqning milliy mentaliteti, ijtimoiy psixologiyasi va hayotiy ideallari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aholining, xususan, yoshlarning ijtimoiy faolligi dinamik o'zgarishlarni harakatga keltiruvchi kuch bo'lsa-da,

amaliyot shuni ko'rsatadiki, bu faollik millatning ruhiyati bilan hamohang tarzda rivojlanishi kerak.

Taniqli olim, akademik **A.Asqarov** o'zining tarixiy-etnografik tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, o'zbek milliy mentalitetining eng muhim va tayanch xususiyatlaridan biri bu — **jamoaviylik** tuyg'usidir. Aynan mana shu jamoaviylik fenomeni, ya'ni shaxsning o'zini avvalo oila, mahalla va el-yurtning bir bo'lagi deb his qilishi — yoshlarda mustahkam ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda va ularni jamiyatga integratsiya qilishda asosiy pedagogik mexanizm bo'lib xizmat qiladi [2].

Milliy mentalitetning o'zagini tashkil etuvchi etnomadaniyat fenomeniga zamonaviy ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlarda yoshlar ijtimoiylashuvining bazaviy poydevori sifatida qaraladi. Faylasuf olim **B.M. Qandovning** qayd etishicha, etnomadaniyat shunchaki tarixiy meros emas, balki muayyan xalqning yashash tarzini, qadriyatlarini, tili va o'zini o'zi anglash usullarini o'zida mujassam etgan murakkab, sotsiodinamik reallikdir [4]. O'zbek xalqining milliy madaniyatida umumbashariy va milliy xususiyatlar dialektik jihatdan uzviy bog'langan bo'lib, ular yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishda hal qiluvchi paradigma vazifasini o'taydi.

**Munozara.** Shu bilan birga, jamiyat ichidagi ma'lum bir hududiy yoki ijtimoiy guruhlarning o'ziga xos ehtiyojlarini aks ettiruvchi submadaniyatlar ham mavjuddir. Ular etnomadaniyatni turli ranglar bilan boyitadi va uni davr talablariga moslashtiradi. Demak, yoshlarni ijtimoiylashtirish jarayonida ularni faqatgina umumiy madaniyatga emas, balki sog'lom submadaniyatlarga ham to'g'ri yo'naltirish, ularning milliy g'oya va sog'lom qadriyatlar ruhida kamol topishini ta'minlash ijtimoiy pedagogning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi [4].

O'zbekiston sharoitida mahalla instituti azaldan jamiyatning ijtimoiy tayanchi, yuksak axloq va o'zaro mas'uliyat maskani bo'lib kelgan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoevning 2025 yil 26 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, jamiyatning kuch-qudrati va birdamligi bevosita mahalladan boshlanadi. Sotsiologik tadqiqotlar natijalari ham buni tasdiqlab, aholining 90 foizdan ortig'i o'zini mahalla hamjamiyatining ajralmas qismi deb bilishini ko'rsatmoqda. Demak, yoshlar, oila va bandlik bilan bog'liq muammolar eng birinchi galda mana shu lokal muhitda namoyon bo'ladi va aynan shu erda o'zaro yordam mexanizmi eng tez ishga tushadi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan «Mahallada tinchlik va totuvlik bo'lsa, jamiyatda tinchlik va totuvlik bo'ladi. Mahalla rivojlansa, mamlakat ham ravnaq topadi», - degan tamoyil bugungi kunda ijtimoiy-pedagogik boshqaruvning asosiy vektoriga aylandi. Bu strategik yo'nalish xalqimizning asrlar davomida shakllangan boy tajribasiga asoslanadi. Chunki mahalla shunchaki yashash joyi emas, balki insonlar hayotining eng muhim jihatlarini tartibga soluvchi noyob ijtimoiy institutdir.

**Natijalar.** Tarixan va bugungi kun nuqtai nazaridan mahalla yoshlar ijtimoiylashuvida **3-ta** o‘zaro bog‘liq fundamental funktsiyani bajarib kelmoqda:

**1. Axloqiy-tarbiyaviy funktsiya.** Kattalarning hayotiy tajribasi, jamoatchilik fikri va umumqabul qilingan xulq-atvor normalari orqali yoshlarda ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, mas‘uliyat va o‘zaro yordam kabi fazilatlar shakllantiriladi. Qiyin vaziyatlarda «qo‘shni-qo‘shniga, oila-oilaga» suyanchiq bo‘lishi yosh avlod tarbiyasining eng muhim o‘zagi hisoblanadi;

**2. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash funktsiyasi.** Mahalla azaldan ehtiyojmand oilalar, e‘tiborga muhtoj bolalar va yolg‘iz keksalarga manzilli yordam ko‘rsatishning eng tezkor va sifatli mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi;

**3. Tashkiliy funktsiya.** Bu odamlarning o‘zaro kelisha olishi, hududdagi obodonlashtirish, xavfsizlik va jamoaviy ishlarni birgalikda hal etish qobiliyatidir.

Ushbu funktsiyalarni zamonaviylashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrda PF-209-son Farmoni bilan mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uni aholi muammolarini hal qiluvchi birlamchi bo‘g‘inga aylantirish bo‘yicha mutlaqo yangi tizim yaratildi. Mazkur hujjat ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish amaliyoti uchun tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, unga ko‘ra mahallalarda «mahalla etiligi» (mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar etakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori) faoliyati institutsionallashtirildi.

Ushbu tizim doirasida ijtimoiy xodimning asosiy vazifasi sifatida og‘ir ahvolga tushib qolgan yoki tushib qolish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslar va oilalarni aniqlash, ularga kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish belgilandi. Shuningdek, yoshlar va oilalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, ularni «Yoshlar daftari» yoki «Temir daftar»ga kiritish masalalari byurokratiyadan xoli tarzda, aynan mana shu «ettilik»ning kollegial (jamoaviy) qarori asosida amalga oshirilishi qat‘iy belgilab qo‘yildi [1]. Demak, maktabdagi ijtimoiy pedagogning eng yaqin hamkori endilikda bevosita mahalladagi ijtimoiy xodim va yoshlar etakchisi hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot ishining nazariy tahlillari va amaliy tajriba-sinov natijalaridan kelib chiqib, mamlakatimiz ta‘lim muassasalarida bolalar va o‘smirlar ijtimoiylashuvi jarayonini sog‘lomlashtirish, deviant xulq-atvorning oldini olish hamda ijtimoiy pedagoglar faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy asoslangan amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Xususan, institutsional va boshqaruv yo‘nalishida, masalan,

**1).** maktab va mahalla hamkorligini raqamlashtirish: ta‘lim muassasalaridagi ijtimoiy pedagoglar, mahalladagi yoshlar etakchisi, xotin-qizlar faoli va Milliy gvardiyaning inspektor-psixologlari o‘rtasida tezkor ma‘lumot almashishni ta‘minlovchi yagona «Ijtimoiy himoya – Maktab» (Yagona darcha) elektron platformasini yaratish. Bu tizim orqali oilada zo‘ravonlikka uchragan yoki xulqida keskin o‘zgarish kuzatilgan o‘quvchi

haqidagi ma'lumotlar zudlik bilan barcha mas'ullarga etib borishi va bolani qutqarishning individual marshruti tezkor ishlab chiqilishi ta'minlanadi;

2). ijtimoiy pedagoglarning faoliyatini baholash mezonlarini (KPI) o'zgartirish: maktab ijtimoiy pedagoglarining ishini faqatgina o'tkazilgan yig'ilishlar va to'ldirilgan daftarlar soni bilan emas, balki aniq sifat ko'rsatkichlari — nechta «muammoli» o'quvchi sog'lom ijtimoiy hayotga qaytarilgani, jinoyatchilikning oldi olingani va maktabdagi ruhiy iqlimning yaxshilangani bilan baholash tizimiga o'tish.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, bolalar va o'smirlarning ijtimoiylashuvi faqatgina bitta muassasaning ishi emas, balki davlat, mahalla, maktab va oilaning yaxlit va uzviy harakatlarini talab qiluvchi umummilliy jarayondir. Ta'lim muassasalarida ijtimoiy-pedagogik faoliyatni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish Yangi O'zbekistonning ertangi kuni bo'lgan barkamol, mustaqil fikrlaydigan, jamiyatning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan va har qanday yot g'oyalarga qarshi immunitetga ega bo'lgan sog'lom avlodni voyaga etkazishning eng asosiy garovi bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 21 декабрдаги «Маҳалла институтининг жамиятдаги ролини тубдан ошириш ва унинг аҳоли муаммоларини ҳал этишда биринчи бўғин сифатида ишлашни таъминлашга оид чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-209-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 25.12.2023 й., 06/23/209/0975-сон.
2. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: «Университет», 2007. – 339 б.
3. Базарбаев Ж. Эдебиат — ибрат мектеби. – Нукус: «Билим», 2015. – 79 б.
4. Қандов Б.М. Роль этнокультуры в воспитании молодежи Узбекистана в духе национальной идеологии // International Congress on Multidisciplinary Studies. 2022. URL: <https://conferencezone.org>
5. Mamanov J. A., Roziqov J.M. Milliy mentalitetning yoshlar madaniyatiga ta'siri // Academic research in educational sciences. – 2021. – № Special Issue 1.